

UDC: 347.963(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-2890-9120

PROKURATURA ORGANLARIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARIGA OID QONUNLAR IJROSI USTIDAN NAZORAT FAOLIYATI PREDMETI, MAQSADI VA HUQUQIY ASOSLARI

Zokirov Sherzod Ilhom o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi Akademiyasi
tayanch doktoranti
e-mail: shizokirov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sirasiga "fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish" qayd etilganligi keltirilgan. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatning predmeti, asosan, jismoniy va yuridik shaxslarning ariza, shikoyat va murojaatlari qonuniy hal etilishini ta'minlashdan iborat bo'lishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shundan kelib chiqqan holda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti, ushbu sohada nazoratni amalga oshirish maqsadi hamda mazkur yo'nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy-nazariy asoslarga ko'ra o'rganilgan. Procuratura organlarida murojaatlarga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatining predmeti va obyekti o'rtasidagi chegara yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarida mustahkamlangan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid ayrim normalar tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining "Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish" haqidagi 7-moddasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining "Murojaatlarni ko'rib chiqishda qonuniylilikni ta'minlash borasidagi faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi buyrug'ida keltirilgan huquqiy asoslar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: murojaat, prokuratura organi, predmet, obyekt, huquqiy asos, jismoniy shaxs murojaati, yuridik shaxs murojaati, prokuror nazorati.

ПРЕДМЕТ, ЦЕЛЬ И ПРАВОВАЯ ОСНОВА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОВ ОБ ОБРАЩЕНИЯХ ФИЗИЧЕСКИХ И ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ В ОРГАНАХ ПРОКУРАТУРЫ

Зокиров Шерзод Илхом угли,
докторант Академии Генеральной прокуратуры
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье упоминается, что статья 4 Закона Республики Узбекистан "О прокуратуре" гласит, что надзор за исполнением законов, направленных на обеспечение прав и свобод граждан, является одним из основных направлений деятельности прокуратуры. Научно выявлено, что предмет деятельности в этом направлении состоит в основном в обеспечении правового решения заявлений, жалоб и обращений физических и юридических лиц. Исходя из этого, на научно-теоретической основе были проанализированы предмет прокурорского надзора за исполнением законов по обращениям физических и юридических лиц, цель осуществления надзора в этой сфере, а также нормативно-правовые акты, относящиеся к данному направлению. Выделена граница между предметом и объектом надзора за исполнением закона об обращениях в органах прокуратуры. Анализируются некоторые нормы по обращениям физических и юридических лиц, закрепленные в Законах Республики Узбекистан "Об

обращения физических и юридических лиц” и “О прокуратуре”. Кроме того, в соответствии со статьей 7 Закона Республики Узбекистан “О прокуратуре” о рассмотрении заявлений и жалоб граждан и обращений юридических лиц выделены нормы, содержащиеся в приказе Генерального прокурора Республики Узбекистан “О повышении эффективности деятельности по обеспечению законности при рассмотрении обращений”.

Ключевые слова: обращение, прокуратура, субъект, объект, правовая основа, обращение физического лица, обращение юридического лица, прокурорский надзор.

SUBJECT, PURPOSE AND LEGAL BASIS OF THE SUPERVISION OF THE EXECUTION OF LAWS ON APPEALS OF INDIVIDUALS AND LEGAL ENTITIES IN THE PROSECUTOR'S OFFICE

Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li,

PhD Student of the General Prosecutor's
Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, it is mentioned that the article 4 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the Prosecutor's office” states that “supervision of the execution of laws aimed at ensuring the rights and freedoms of citizens” is one of the main activities of the Prosecutor's office. It has been scientifically revealed that the subject of activity in this direction consists mainly in providing a legal solution to applications, complaints and appeals of individuals and legal entities. Proceeding from this, on a scientific and theoretical basis, the subject of prosecutorial supervision of the execution of laws on appeals of individuals and legal entities, the purpose of supervision in this area, as well as regulatory legal acts related to this sphere have been analyzed. The border between the subject and the object of supervision over the implementation of the law on appeals to the prosecutor's office is highlighted. Some norms on appeals of individuals and legal entities enshrined in the laws of the Republic of Uzbekistan “On appeals of individuals and legal entities” and “On the Prosecutor's Office” are analyzed. In addition, in accordance with article 7 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the Prosecutor's Office” on the consideration of applications and complaints of citizens and appeals of legal entities, the norms contained in the order of the General Prosecutor of the Republic of Uzbekistan “On improving the effectiveness of activities to ensure the rule of law when considering appeals” are highlighted.

Keywords: appeal, prosecutor's office, subject, object, legal basis, the appeal of an individual, appeal of a legal entity, prosecutor's supervision.

Kirish

Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish instituti har qanday demokratik-huquqiy davlatdagi shaxs va fuqaroning huquqiy maqomini belgilab beruvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 35-moddasida “Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega”ligi mustahkamlangan.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi prokuratura organlari faoliyatida qonuniylik va tartibni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya

qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz bajarish bo'yicha yangi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan qonunlarning so'zsiz bajarilishini samarali nazorat qilish orqali xalq manfaatlariga xizmat qilish prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilangan.

“Prokuratura to'g'risida”gi Qonunning 24-moddasiga ko'ra, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi nazorat predmeti hisoblanadi.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida “fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish” qayd etilgan. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatning predmeti, asosan, jismoniy va yuridik shaxslarning ariza, shikoyat va murojaatlari qonuniy hal etilishini ta‘minlashdir.

A. Brenzonning ta‘kidlashicha, prokuror nazorati nazariyasida, u yoki bu sohada qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratning predmeti va obyekti chegaralari aniqlanishi nazorat faoliyatining ma‘nosi va o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun zarur hisoblanadi [1]. Bu esa, o‘z navbatida, prokuratura organlari nazorati imkoniyatlarini aniqlash va uni davlat nazorati hamda nazoratning boshqa turlaridan ajratib olishga yordam beradi.

O.M. Madaliyev [2, 44-b.] qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati predmetini yoritishda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida ko‘rsatilgan prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida belgilangan huquqiy munosabatlari – prokuror nazoratining predmeti ekanligini ta‘kidlagan bo‘lsa, B.X. Po‘latov [3, 147-148-b.] prokuror nazorati faoliyati predmeti sifatida bevosita “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasi talablaridan kelib chiqib yondashgan va bu faoliyatda nazorat obyekti bo‘lib, nazoratni ta‘minlash jarayonida prokuror tomonidan baho beriladigan huquqiy hujjatlar hisoblanishi to‘g‘risidagi qarashlarni ilgari surgan. B. Hamidov [4] ham ushbu fikrga o‘xshash fikrni bildirib o‘tgan.

B.M. Spiridonov fikricha, nazorat predmeti – bu vazifalarni samarali bajarish uchun prokuror bajarishi shart bo‘lgan omillardir [5, 127-b.]. V.G. Melkumov esa nazorat predmeti – “qonun buzilishlari va ularga olib keladigan vaziyatlarni aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, qonun ustuvorligini tiklash va aybdorlarni javobgarlikka tortishdan iborat”ligini keltirib o‘tgan [6, 112-b.].

Fikrimizcha, bu yerda V.G. Melkumov prokuror nazoratining predmeti sifatida prokuror nazorat faoliyati mazmunini ta‘riflagan ko‘rinadi. Muallif prokuror nazorati predmeti va prokuror nazoratining mazmunini aralashtirib yuborgandek tuyuladi.

Bu borada G.I. Brovinning fikrlari o‘rinli. U “predmet” tushunchasi prokuror nazorati nazariyasida faqatgina aniq va bir ma‘noda, ya‘ni “prokuror nazorat davomida nimani o‘rganadi?” savoliga javob beradi, degan ma‘noda qo‘llanilishini ta‘kidlagan [7, 97-b.].

Shu bois, bizning ilmiy qarashlarimiz G.I. Brovin tomonidan keltirilgan fikrlar bilan hamohang bo‘lib, fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining predmeti muayyan faoliyat, ya‘ni Qonunning 24-moddasida keltirib o‘tilgan organlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilayotganligi, ular tomonidan chiqarilayotgan huquqiy hujjatlar amaldagi qonunlarga qanchalik muvofiqligi nazorat predmeti bo‘lsa, nazorat obyekti esa bu faoliyatni amalga oshiruvchi organlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 1992-yildagi tahririda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish barobarida, fuqarolar ustidan nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, ularning qonunlarga rioya etishlari prokuror nazorati predmeti hisoblangan. Yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda esa prokurorlar fuqarolar ustidan nazoratni amalga oshirmasligi, aksincha, fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi belgilangan. Bu borada yangi tahrirdagi Qonunga yangi “fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat” nomli bob kiritilishida, bir tomondan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishining alohida ahamiyatligi, ikkinchi tomondan, ushbu huquq va erkinliklarni ta‘minlashda prokuratura organlarining nazorat qiluvchi rolini oshirish maqsadi nazarda tutilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat predmeti to‘g‘risidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu masala yechimi bo‘yicha yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar o‘rtasida turlicha fikrlar ilgari surilgan. Bu bo‘yicha olimlarimizdan Z.S. Ibragimov [8, 135-b.] hamda rus olimi P. Belyakov [9] ushbu sohada qonunlar ijrosi ustidan nazorat predmeti mamlakat Konstitutsiyasi, amalda bo‘lgan qonun va qonunosti hujjatlari, prokuratura (prokuror) nazorati ostidagi davlat

idoralari va mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlarning qonuniyligiga rioya qilishdan iborat ekanligini ta'kidlashgan.

Boshqa guruh olimlar, xususan, A. Berenzon [1, 45-b.] ushbu yo'nalishda nazorat predmeti bu jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar doirasidagi faoliyatning prokuratura organlarining barcha yo'nalishlarida asos bo'lib xizmat qiluvchi o'ziga xos xususiyatga egaligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan.

Bu borada O. Lityaginaning mazkur sohadagi prokuror nazorati predmeti to'g'risidagi qarashlari birmuncha aniqroq bo'lib, unga ko'ra:

- ushbu sohada fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklariga rioya etilishini nazorat qilish;

- ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

- prokuratura organlariga fuqarolar tomonidan yo'llangan murojaatlarni qonuniy asoslarda ko'rib chiqish va hal etishni tashkil etishdan iborat ekanligi ta'kidlangan [10, 47-b.].

Yuqorida keltirilgan huquqshunos olimlarning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmetiga oid g'oya va qarashlarini tahlil etib, ikkala guruh olimlar va O. Lityagina tomonidan bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlarga qo'shilish mumkin.

Keltirilgan qarashlarga qo'shimcha ravishda mualliflik fikrimizni bildirib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga oid qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlariga doir xalqaro hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi va boshqa murojaatlarga oid normalar mavjud moddalarida mustahkamlangan qoidalar, jismoniy va yuridik shaxslarning siyosiy huquqlari hisoblangan murojaatlarga tegishli qonun va qonunosti hujjatlari, davlat idoralari mansabdor shaxslari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan murojaat huquqiga oid qabul qilingan qarorlari hisoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish prokuratura organlarining o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik

shaxslarning murojaatga doir konstitutsiyaviy huquqlarining to'siqlarsiz amalga oshirilishi ijrosini ta'minlash, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va aybdor shaxslarni qonunlarda belgilangan tartibda jazolashga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Ushbu munosabatlar sohasidagi nazoratning maqsadi prokuror nazorati orqali jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonun hujjatlari talablariga binoan murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni amalga oshiradigan davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqish va hal etish borasidagi vakolatlarni qonunlarga asoslangan holda bajarilishini ta'minlashga erishishdan iborat.

D.R. Pashtov prokuratura organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlarini himoya qilish nazoratini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadni umumiy va maxsus turlarga bo'lgan [11]. P.A. Belyakov Rossiya Federatsiyasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi 2-qismida belgilangan asosiy yo'nalishlarni prokuratura organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlari himoya qilinishini nazorat qilishdan ko'zlangan maqsadlar sifatida e'tirof etgan [9].

P.A. Belyakovning bildirgan fikriga nisbatan shuni aytishimiz mumkinki, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlari himoya qilinishini nazorat qilishdan ko'zlangan maqsadlar sifatida baholash, fikrimizcha, biroz noto'g'ri ekanligini ta'kidlagan holda, o'z pozitsiyamizni quyidagitarzdabildiramiz va prokuratura organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlari himoya qilinishini nazorat qilishdan ko'zlangan maqsadlarni O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan asosiy vazifalardan kelib chiqqan holda:

- 1) murojaatlar bo'yicha qonun ustuvorligining birligi va mustahkamligini ta'minlash;

- 2) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar sohasidagi huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash;

3) jamiyat va davlatning qonuniy himoyalangan manfaatlarini himoyasini ta'minlashdan iborat, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash, ularning murojaatlarini ko'rib chiqishda prokuratura organlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonuniy hal etilishini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda ko'plab normativ huquqiy hujjatlarga asoslanadilar. Ulardan eng asosiysi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini keltirish joiz. Konstitutsiyaning 35-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaat etish huquqi kafolatlangan. Ya'ni har bir shaxs bevosita o'zi yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Shuningdek, arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shartligi belgilangan.

Har bir shaxs bevosita o'zi yoki jamoaviy tarzda davlat organlari, tashkilot va muassasalari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqlari Konstitutsiyada siyosiy huquqlar sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, o'z mohiyatiga ko'ra, ushbu huquq nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatga ham egadir. Shaxsning mazkur huquqdan foydalanishi ayni paytda uning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Davlat organiga ariza bilan murojaat etilganda, murojaat etuvchining o'z xohish-istagi, erk-irodasini ifoda etish, taklif bilan murojaat etganda, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, shikoyat bilan murojaat etganda esa buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

2017-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunni ta'kidlash mumkin. Ushbu qonun davlat organlari va davlat muassasalari, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur qonunning amal qilishi davlat ishtirokidagi tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yangi qonun qabul qilinguniga qadar mamlakatda 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun amalda edi. Yangi qonun qabul qilinishi bilan bu qonun bekor qilindi va yangi qonun jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlarining kafolatlari, murojaatlarni berish va ularni ko'rib chiqish tartibi, ularni ko'rib chiqishda murojaat etuvchilarning huquqlari hamda davlat organlarining majburiyatlari kabi masalalarning normalarini belgilab berdi. Prokuratura organlari fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini davlat organlari tomonidan ko'rilishiga oid masalalarni aynan shu qonunga mosligi yuzasidan nazoratni tashkil etadilar.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sirasiga "fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish" kiritilgan. Ushbu yo'nalishda faoliyatning predmeti, asosan, fuqarolarning ariza, shikoyatlari va murojaatlari qonuniy hal etilishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning "Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish" deb nomlangan 7-moddasi prokurorlar zimmasiga fuqarolarning arizalari, shikoyatlari, shuningdek qonun buzilganligi haqidagi boshqa ma'lumotlarni ko'rib, ularni hal qilishlari bilan bog'liq majburiyatni yuklagan. Ariza va shikoyatlar, ma'lumotlar yozma, og'zaki yoki elektron tarzda bo'lishidan qat'i nazar prokurorlar tomonidan ko'rib chiqilishi, albatta, tegishli chora-tadbirlar ko'rilishi shart. Qonunning bu moddasida prokurorlar fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarini shaxsan qabul qilishlari, murojaatlarni tekshirishni davlat boshqaruvi, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirishi hamda ularning tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga egaligi qayd etilgan. Prokurorning murojaat yuzasidan qabul qilgan qaroridan norozi bo'lgan taraf bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilish huquqiga ega.

Ta'kidlash joizki, so'z yuritilayotgan yuqoridagi moddada "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati

yuzasidan qaror qabul qilingandan keyin prokuratura organlarida ular bo'yicha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasnodir", deb ta'kidlangan. Bu, albatta, ayrim asossiz arizalar bilan qayta-qayta prokuratura organlariga murojaat etishga chek qo'yadi.

Yuqoridagi talablardan ma'lumki, prokuratura organlarining barcha tizimida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashga alohida e'tibor beriladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida har bir fuqaroning vakolatli davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi o'z ifodasini topgan. Unda murojaatlarning qonunda belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqilishi shartligi alohida ta'kidlangan. Darhaqiqat, fuqarolarning arizalari, shikoyatlari, murojaatlari bilan ishlash, ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va unga bo'ysunuvchi prokuratura xodimlari faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Arizalar, shikoyatlar, murojaatlarning ko'rib chiqilishiga vijdonan munosabatda bo'lish prokuratura xodimlarining xizmat hamda insoniy burchi, kasb mas'uliyati hisoblanadi. Zero, aynan shu fazilatlar prokuror va tergovchilarning shaxsiy sifatlariga ta'rif berishda bu muhim sohaga munosabati hamisha alohida baholanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri matniga kiritilgan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratda prokuror Qonunning 25-moddasida keltirilgan o'ziga berilgan vakolatdan to'liq foydalanishi lozim. Prokuror aynan shundagina o'z nazorati bilan bog'liq vakolatlari doirasida aynan fuqaroning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bilan bog'liq qonunlar ijrosiga daxldor jihatlarni nazorat obyektiga aylantiradi, shu maqsadga taalluqli vazifalarni amalga oshiradi. Vazifalar ijrosida prokuror bevosita inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari buzilgani yoki buzilayotgani haqidagi ma'lumotlar, axborotni olgach, amalga oshirishga kirishadigan tekshiruvni o'zining asosiy huquqiy vositasi qilib oladi.

Prokuror fuqaroning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajara borib, o'z vakolatlari doirasida:

a) fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi;

b) arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi;

d) fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi.

Shuningdek, fuqaroning huquq hamda erkinliklariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa ayrim muammolar, masalalar bo'lsa (masalan, fuqaro huquqi, erkinligi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar, ularning rahbarlari tomonidan buzilgan bo'lsa), O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasida ko'zda tutilgan tartibda ularning yechimini topadi.

Qonun buzilishlarini vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish g'ayriqonuniy xatti-harakatlar, ularning tarqalishining oldini oladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni fuqaroning huquqlari va erkinliklarini to'liq himoya qilish uchun prokurorlarga alohida vakolatlar bergan. Prokuratura organlari ushbu vakolatlardan fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda amalda samarali foydalanish choralari ko'rishlari lozim.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning bajarilishi yuzasidan prokuror nazorati va uning o'ziga xosligi shundan iboratki, qonun har bir shaxsning davlat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlarga murojaat qilish huquqini aks ettiruvchi asosiy tartib-qoidalarni belgilab beradi.

Fuqarolar prokuraturaga murojaat qilish huquqlaridan ongli foydalangani holda, o'zlarining g'ayriqonuniy ravishda buzilgan haq-huquqlari va erkinliklarini tiklab olishadi, adolat tantana qilganiga ishonch hosil qilishadi. Bu masalaning bevosita fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq jihati hisoblanadi.

Masalaning boshqa tomoni shundaki, fuqarolarning yozma yoki og'zaki arizalari, shikoyatlari, yuridik shaxslarning qonunbuzarlik bilan bog'liq

murojaatlarini ko'rib chiqib, prokuror, eng avvalo, qonun ustuvorligi, ya'ni qonuniylik, fuqarolar huquq va erkinliklari, demak, u yoki bu mazmunda davlat manfaatlari himoyasini ta'minlashga erishadi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati nazariyasi, xususan, amaliyotidan ma'lumki, fuqarolardan tushgan arizalar, shikoyatlar, yuridik shaxslar murojaatlari jamiyatda qonun buzilishi bilan bog'liq ma'lumotlar manbayidir. Prokuror nazorati nazariyasida qonunbuzarlik to'g'risidagi ariza, shikoyat va murojaatlar umumiy tarzda prokuror yoki tergovchi uchun qimmatli ma'lumotlarni berishi ilmiy-amaliy asoslangan. Jumladan, ularning fikrlarini jamlagan holda, prokuror quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin, deb aytish joiz:

- fuqarolarning joylarda yo'l qo'yilgan huquqlari va erkinliklari buzilganligi haqidagi ma'lumotlar;

- turli mintaqa va hududlarda yashovchi shaxslar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va boshqa ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, shuningdek boshqa qonunbuzarliklarni sodir etgan organlar yoki mansabdor shaxslar haqidagi ma'lumotlar;

- fuqarolarning murojaat qilish huquqlari to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmay, ularning shikoyat va arizalarini qondirish chora-tadbirlarini ko'rmagan organlar, mansabdor shaxslar haqidagi ma'lumotlar va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining "Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish" haqidagi 7-moddasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori muntazam ravishda tegishli buyruqlar chiqarib, barcha bo'g'indagi prokuratura organlari, barcha prokurorlar va xodimlarni o'z kasbiy malakasini izchil oshirib,

faoliyatlarida fuqarolarning, yuridik shaxslarning shikoyat hamda arizalar bilan murojaat qilish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar va huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarini to'liq bajarishlarini buyuradi.

Xususan, bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yilning 24-noyabrida qabul qilingan "Murojaatlarni ko'rib chiqishda qonuniylikni ta'minlash borasidagi faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 165-sonli buyrug'ida o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, ushbu buyruq bilan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning shaxsiy qabulini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma ham tasdiqlangan bo'lib, unda Bosh prokuror o'ziga bo'ysunuvchi barcha prokurorlardan fuqarolardan tushgan shikoyat va arizalarni belgilangan muddatda ko'rib chiqib, zarur chora-tadbirlar ko'rishlari hamda o'z qarorlari to'g'risida arizachiga ma'lum qilishlari, asosiy e'tibor inson huquqlari, erkinliklari himoyasi, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqaroning har bir murojaati o'z vaqtida uzil-kesil xolis, adolatli yechimini topishga qaratilishi shartligi mustahkamlab qo'yilgan.

Xulosalar

Muxtasar qilib aytganda, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan barcha sohadagi keng ko'lamli islohotlarni davom ettirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari hisoblangan murojaat huquqlarini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Prokuratura organlarini "xalq prokuraturasi"ga aylantirish shu vaqtgacha dunyoning biror-bir davlatida kuzatilmagan holat ekanligi, bunday ijobiy tajriba birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasida yuz berayotganligini alohida e'tirof etishimiz joiz.

REFERENCES

1. Berenzon A.D. Osnovnye napravleniya sovershenstvovaniya obshhego nadzora sovetskoy prokuratury. Diss. dokt. jurid. nauk [The main directions of improving the general supervision of the Soviet Prosecutor's office. Diss. doct. jurid. sciences]. Moscow, 1997, p. 24.
2. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Olii o'quv yurtlari uchun darslik. Umumiy qism [Prosecutor's supervision. Textbook for universities. General part]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2012, p. 44.

3. Prokuror nazorati. Darslik. B.X. Po'latov, mas'ul muharrirlar T.A. Umarov, A.T. Allamuratov va boshq. [Prosecutor's supervision: Textbook. B.H. Pulatov, responsible editors T.A. Umarov, A.T. Allamuratov and others]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2009, pp. 147-148.
4. Prokuror nazorati. Darslik. Mualliflar jamoasi [Prosecutor's supervision. Textbook. A team of authors]. Tashkent, TSUL, 2019, p. 62.
5. Spiridonov B.M. Prokurorskiy nadzor za sobljudeniem zakonnosti v ispolnitel'no-trudovyyh uchrezhdeniyah [Prosecutor's supervision over the observance of legality in executive labor institutions]. Moscow, Publishing House of MSU, 1978, p. 127.
6. Melkumov V.G. Sovetskaya prokuratura i problemy obshhego nadzora [Soviet Prosecutor's office and problems of general supervision]. Dushanbe, Irfon, 1970. p. 112.
7. Brovin G.I. O prokurorsko-nadzornyyh pravootnosheniyah. Sovershenstvovanie prokurorskogo nadzora v SSSR [On prosecutor-supervisory legal relations. Improvement of prosecutorial supervision in the USSR]. Moscow, Nauka, 1973, p. 97.
8. Ibragimov Z.S. Mustaqillik va O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi (istiqlol yillaridagi huquqiy maqomi rivojlanishining qiyosiy tahlili) [Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan and the Republic of Uzbekistan (comparative analysis of the development of the legal status in the years of independence)]. Tashkent, Publisher, 2011, p. 135.
9. Beljakov P.A. Zashhita prokurorom prava grazhdan na obrashhenie v Gosudarstvennyye organy i organy mestnogo samoupravleniya. Dis. kand. jurid. nauk [Protection by the prosecutor of the right of citizens to appeal to State bodies and local self-government bodies. Dis. cand. jurid.]. Moscow, 2016, p. 121.
10. Litjagina O.N. Uchebno-metodicheskiy kompleks dlja special'nosti Pravovedenie [Educational and methodological complex for the specialty of Jurisprudence]. Minsk, Minsk Innovation University, 2017, p. 47.
11. Pashtov D.R. Uchastie prokuratury v zakonotvorcheskoj dejatel'nosti zakonodatel'nyh (predstavitel'nyh) i ispolnitel'nyh organov sub#ektov Rossijskoj Federacii. Dis. kand. jurid. nauk [Participation of the Prosecutor's Office in the legislative activity of legislative (representative) and executive bodies of the subjects of the Russian Federation. Diss. cand. jurid.]. Moscow, 2014. p. 103.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.